

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

XALQ OG‘ZAKI IJODI VA O‘ZBEK BOLALAR SHE‘RIYATINING ILK QADAMLARI

Rahmatulla BARAKAYEV,

*filologiya fanlari nomzodi, professor,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti*

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15292058>

Annotatsiya: maqolada o‘zbek xalq og‘zaki ijodining bolalar adabiyotiga ta’siri, xalq ertaklari asosida yaratilgan adabiy ertaklarning taraqqiyot xususiyatlari va o‘ziga xosliklari xususida fikr yuritiladi. Xalq ertaklari asosida qayta yaratilgan adabiy ertaklarda xalq og‘zaki adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari har bir ijodkor asarlarida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishi, ayniqsa, turli ertaklardagi xalq og‘zaki ijodiga xos ma’rifiylik-tarbiyaviylikning har bir ijodkor asarida yangilanish tamoyillari ko‘rsatib beriladi. Xalq og‘zaki ijodi bolalar adabiyoti taraqqiyotida alohida o‘rin tutishi va folklorga xos turli janrlarning bolalar adabiyotida qayta ishlangan tarzda namoyon bo‘lishi xususiyatlari haqida umumlashma xulosaga kelinadi.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, bolalar adabiyoti, adabiy ertak, an’anaviylik va badiiy mahorat.

Аннотация: В статье рассматривается влияние узбекского народного устного творчества на детскую литературу, особенности развития и самобытность литературных сказок, созданных на основе народных сказок. Анализируется, как уникальные черты народного устного творчества проявляются в произведениях каждого автора при переработке народных сказок в литературные сказки. Особое внимание уделяется принципам обновления просветительско-воспитательных аспектов, характерных для народного устного творчества, в различных сказках. В результате делается общий вывод о том, что народное устное творчество занимает особое место в развитии детской литературы, а различные жанры фольклора находят свое отражение в детской литературе в переработанном виде.

Ключевые слова: народное устное творчество, детская литература, литературная сказка, традиционность и художественное мастерство.

Annotation: The article discusses the influence of Uzbek folk oral literature on children’s literature, the developmental characteristics, and the uniqueness of literary fairy tales based on folk tales. It examines how the distinctive features of folk oral literature are uniquely reflected in each writer’s works when folk tales are reinterpreted as literary fairy tales. Special attention is given to the renewal principles of the educational and moral aspects inherent in folk oral literature in various fairy tales. The study concludes with a generalization that folk oral literature plays a significant role in the development of children’s literature, and various folklore genres are adapted and manifested in children’s literature.

Keywords: folk oral literature, children’s literature, literary fairy tale, tradition and artistic mastery.

O‘zbek adabiyotining barcha tur va janrlari hamda yo‘nalishlari singari bolalar adabiyoti, jumladan, bolalar she‘riyatining barcha davrlardagi takomili ham xalq og‘zaki ijodi bilan chambarchas bog‘liqligi isbot talab qilmas haqiqatdir. Zero, «xalq

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

og‘zaki ijodi nafaqat adabiyot «tug‘ilishi»ga, maydonga kelishiga sabab bo‘ldi, balki keyingi barcha davrlarda uning taraqqiyotiga ham ko‘maklashdi... U (badiiyatni his qilish) didini, vatanparvarlikni shakllantirdi, rus adabiyotining milliy qirralarini shakllantirdi» [Лихачев Д.С. 1: 31]. Akademik D.S.Lixachyovning ushbu fikrini istisnosiz ravishda barcha xalqlar adabiyotlariga, jumladan, o‘zbek bolalar adabiyotiga ham tatbiq etish mumkin. Chunki, aslida ham, xalq og‘zaki ijodi bolalar adabiyotining sarchashmasi bo‘lib, «bolalar adabiyoti xalq og‘zaki ijodining yozma adabiyot bilan bog‘lanib ketadigan qaysidir bir nuqtasida tug‘iladi» [Левин М.П. 2: 87]. Ma‘lumki, bolalar adabiyotimiz ibtidosi, aslida, juda qadim-qadimlarga – dastlabki onaning birinchi farzandiga aytgan **allasi**, bolasining tili burro bo‘lishi uchun to‘qigan **tez aytishlari**, tabiat va jamiyatdagi har bir narsaning asl mohiyatini tez anglab olishiga yordam beradigan **topishmoqlari**, bobo va momolarning nevaralariga aytgan **ertaklari** hamda bolalarning o‘yin vositasida sog‘lom va chaqqon bo‘lib o‘sislariga ko‘maklashadigan **o‘yin qo‘shiqlariga** borib taqaladi. Binobarin, xalq og‘zaki ijodining ushbu ibtidoiy namunalaridan paydo bo‘lgan bolalar adabiyotining yozma adabiyotdagi tarixi shu qadar ko‘hnaligi ham tabiiydir.

Demak, o‘zbek bolalar adabiyoti badiiy takomilini belgilagan turli omillar orasida xalq og‘zaki ijodidan ilhomlanish, uni yozma adabiyotda turli shakllarda qo‘llash alohida o‘rin tutadi. Jumladan, deyarli barcha bolalar adabiyoti namoyandalari ijodida xalq og‘zaki ijodidagi ertak va masallar syujeti asosida qayta yaratilgan o‘nlab asarlar uchrashining o‘ziyoq fikrimiz dalili bo‘lib xizmat qila oladi. Binobarin, muammoning nihoyatda serqirra ekanligini ko‘zda tutgan holda uni qo‘llanish darajasiga ko‘ra quyidagicha guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq ko‘rildi: a) ertaklar; b) masallar; v) o‘yin qo‘shiqlari; g) topishmoqlar; d) loflar; ye) maqol va hikmatli so‘zlar. Bir maqola doirasida bu guruhlarining barchasi haqida fikr yuritish mushkulligini ko‘zda tutgan holda ushbu maqolada XX asr boshlari o‘zbek bolalar she‘riyatda xalq ertaklari asosida qayta yaratilgan ba‘zi adabiy ertaklarning o‘ziga xosliklari haqida mulohaza yuritish bilan cheklanamiz.

Zero, o‘zbek bolalar she‘riyati o‘zining ilk qadamlaridan boshlab asosiy e‘tiborini xalq og‘zaki ijodining benihoya boy xazinasidagi bevosita bolalarga bag‘ishlangan janrlarga mansub asarlarga qaratganligi bejiz emas. Chunonchi, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy va boshqa ma‘rifatparvarlar bolalarga mo‘ljallab yaratgan asarlarning asosiy qismi bevosita yoxud bilvosita xalq og‘zaki ijodiga taalluqlidir. Ularning bir qator asarlariga xalq ertak, qo‘shiq va masallari asos

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, ular qalamiga mansub tarjima asarlarning asosiy qismi ham turli xalqlar og‘zaki ijodiga mansubdir.

Abdulla Avloniyning «Tulki ila qarg‘a» she‘riy ertagi shu jihatdan e‘tiborga sazovor. Nazarimizda, Avloniy bu she‘riy ertagida 3 manbadan ijodiy foydalangan. Ulardan biri K.D.Ushinskiyning «Lisa i dyatel» nasriy ertagi [Ушинский К.Д. 3: 68-69], ikkinchisi “Kabutar, tulki, laylak yoki birovlariga yo‘l ko‘rsatib, o‘zlarini falokatdan qutqara olmaganlar” nomli hind ertagi [Калила ва Димна. 4: 237-238], uchinchisi “Hiylagar bedana” nomli o‘zbek xalq ertagidir [Ўзбек халқ эртаклари 5: 66-69]. K.D.Ushinskiy o‘z ertagini “xalq ertagi” deb ta’kidlagan. Unda tasvirlanishicha, bir qizilishton eman daraxtiga in qurib, bola ochar ekan. Uning uch bola ochganidan xabar topgan ayyor tulki kelib: “Daraxtdan tush, men uni o‘tin qilmoqchiman!” - deb do‘q uradi. Qizilishton: “Eh, tulki, meni bir bolamni o‘stirishga ham qo‘ymading-a!” - deb zorlansa, tulki: “Bolangni menga tashla, men unga hunar o‘rgataman”, - deya aldaydi. Birinchi bolasini temirchi-likka, ikkinchisini etikdo‘zlikka, uchinchisini tikuvchilikka o‘rgataman deb, uch kunda uch bolasini ham yeb qo‘yadi.

“Kalila va Dimna” ertagida kabutar xurmo daraxti ustiga in qurib, bola ochadi. Bolalarini uchirma qilish paytida tulki kelib: “Bolangni tashlamasang, chiqib hammalaringni yeyman!” - deb qo‘rqitar ekan. Kabutarning ikki bolasi uchirma bo‘lishiga yaqin bir laylak kelib qoladi va g‘amginligi sababini so‘raydi. Kabutar dardini aytgach, laylak unga: “Tulkidan qo‘rqma, u daraxtga chiqsa, sen uchib ketishing mumkin-ku”, - deya tasalli beradi. Tulki kelib, maqsadiga yetolmagach, maslahatchini aniqlaydi va laylakning o‘zini aldab qo‘lga tushirib, yeydi.

O‘zbek xalq ertagida xurmo do‘lana bilan, kabutar – zag‘izg‘on va laylak bedana bilan almashtirilgan. Tulki maslahatchini tutib olganiga qadar bu ertakning mazmuni ham avvalgilardan farq qilmaydi. Ammo hind xalq ertagida tulki laylakni tutib yegan bo‘lsa, o‘zbek ertagida bedana hiyla qilib, tulkining o‘zini qopqonga tushirib qutuladi. Nazarimizda, Avloniy har uchala variantdan ham xabardor bo‘lgan. Uning she‘riy ertagida chinor daraxtiga in qurgan laklak (laylak) uch bola ochadi. Bundan xabar topgan ayyor tulki: “Bu daraxt menga otameros, men uni kesmoqchiman, darrov iningni bo‘lak yerga ol!” - deya laylakka do‘q uradi. Qo‘rqoq va nodon laylak bir bolasini tulkiga tashlaydi. Voqeadan xabardor bo‘lgan qarg‘a laylakka:

Xo‘b uzundur bo‘yungu, aqling oz,
Qishga yo‘q toqating, tilarsan yoz.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O’RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Tulkining korimu o‘tin kesmoq,

Shunga ham yetmas aqling, ey ahmoq [Авлоний А. 6: 28]

deya dashnom beradi. Ikkinchi marta ham kelgan tulki maqsadiga yetolmagach, maslahatchini aniqlaydi va qarg‘aning o‘zini tutib oladi. Bolalar adabiyotining o‘ziga xosliklaridan biri esa bolalarga mo‘ljallangan har qanday asarda ezgulik, haqqoniyat g‘alaba qilishi lozimligi, hech bo‘lmaganda, shunga ishora qilinishi kerakligini taqozo etadi. Avloniyning o‘zbek bolalar adabiyoti endigina tetapoya qilayotgan bir paytda yaratgan adabiy ertagi shunisi bilan xarakterliki, unda voqea rus va hind ertaklaridagidan farqli o‘laroq, yaxshilik g‘alabasi bilan tugaydi; qarg‘a tulkidan qutulish uchun ajoyib bir hiyla o‘ylab topadi:

Tulkiga: - Ey, birodarjonim!

Sanga bo‘lsun halol etu qonim.

Bu baytni o‘kub, yegil go‘shnim,

Bu vasiyatni sanga man qo‘shnim:

“Bevatan, bego‘ru kafan Qarg‘a,

Laklaka yaxshilik edan Qarg‘a” [Авлоний А. 6: 29].

Tulki baytni takrorlayman deb og‘iz ochishi bilan Qarg‘a uchib ketadi, ertak ham shu bilan yakunlanadi:

Qarg‘a maqsud-murodiga yetdi,

Hiylagar Tulki och qolub ketdi [Авлоний А. 6: 29].

Rus va hind ertaklari yomonlikning yaxshilik ustidan g‘alabasi bilan tugagan, hatto “Kalila va Dimna” ertagining: “... birovlariga yo‘l ko‘rsatib, o‘zlarini falokatdan qutqara olmaganlar...” deb nomlanishi ham shunga ishora kabi edi. Biroq, tadqiqotchilar ko‘p bora ta’kidlaganlaridek, «ijodkor adabiy ertak ustida ishlaganida ertagona syujetga kelib chiqishi milliy va o‘zga xalqlar folkloriga mansub bo‘lgan turli-tuman motivlarni qo‘shish bilan go‘yoki xalq ertakchisining yo‘lini takrorlaydi hamda uning qalami ostida nomilliy material sof milliy mohiyat kasb etadi» [Берак Б. 7: 6]. Avloniyning esa, ma’rifatparvar sifatida, asarning axloqiy-tarbiyaviy jihati ko‘proq qiziqtirardi. Shu sababli ham uning adabiy ertagi tarjimadan ko‘ra original asarga o‘xshab ketgan. Ertakning asosiy o‘ziga xosliklari, avvalo, bolalar adabiyotining deyarli barcha talablariga javob bera olishi bilan belgilanadi. Asar mazmuni juda qiziqarli va dinamik, yosh kitobxonni ertak oxirigacha hayajonda tutib tura oladi. She’ning vazni yengil va o‘ynoqi, o‘qilishi ravon, qofiyalari ham to‘q va to‘liq. Ertakning yana bir jihati tasvirlanayotgan hayvon va parrandalarning portret va xarakterlari ularning o‘zaro suhbatlari, gap-so‘zlari vositasida yaratilishi, ya’ni unda

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

ta’rif o‘rnini tasvir egallay boshlaganligida aks etadi. Chunonchi, tulki – ayyor; laylak – nodon, bo’shang; qarg’a – aqlli va tadbirkor. Yuqorida keltirilgan qarg’a va laylak suhbatini eslaylik. Laylakning bo‘yi uzunligi, sovuqni yoqtirmasligi uning bosh tashqi belgilaridan. Avvalo, bolalarning o‘zlari bosh tashqi belgilarni ajratib olishga usta bo‘ladilar, shuningdek, bolalar ijodkorlari oldiga qo‘yiladigan talablardan biri ham shunda aks etadi. Avloniy ushbu bosh tashqi belgilarni topib va o‘rnida ishlata olgani esa uning va o‘ziga xosliklarini kashf qilib borayotgan yosh o‘zbek bolalar adabiyotining yutug‘i sifatida baholanmog‘i joiz. Zero, «ertakda to‘qima qanchalik ko‘p bo‘lsa, uning asosi – ertak qahramonlarining xarakterlari, xatti-harakatlari va qilmishlari shunchalik darajada ishonarli bo‘lishi kerak. Agar ertakda barcha narsa boshidan oxirigacha uydirmadan iborat bo‘lsa, sizni undagi harqanday g‘ayritabiiy mo‘jiza va sehrli evrilishlar ham hayratga sola olmaydi» [Маршак С. 8: 42].

Hamza Hakimzodaning «Bolaning yomon bo‘lmog‘iga sabab bo‘lgan onaning jazosi» [Хамза ҲАКИМЗОДА. 9: 228-229] deb nomlangan she’riy adabiy ertagi esa yana bir o‘zgacha xususiyati bilan diqqatga sazovordir. Zero, Hamza Hakimzoda ushbu asarida bolalarni ota-onalari va ustozlarini hurmat qilish, ular chizgan chiziqdan chiqmaslikkagina chorlamaydi, balki ota-onalarning ham farzandlar oldida muayyan burchlari borligi, ayniqsa, farzand tarbiyasi borasida mas’uliyatlari beqiyos ekanligini o‘ziga xos yo‘sinda tasvirlaydi:

Bir kuni bir o‘g‘rini poyladilar,

Ushlab oyoq-qo‘lini boyladilar.

Shah qoshiga keldilar olib ani,

Qildi amr shah oni o‘ldurgani [Хамза ҲАКИМЗОДА. 9: 356].

Albatta, o‘g‘rilikning oxiri voyligi, o‘g‘ri bir kun qo‘lga tushib jazosini tortishi muqarrar. Biroq Hamza Hakimzoda she’riy hikoyasi shu jihati bilan e’tiborga sazovorki, shoir asarida o‘g‘rilik oqibatini ibrat qilib tasvirlash bilangina cheklanmaydi, balki uning ildizini, ya’ni kelib chiqish sabablarini ham ishonarli tasvirlaydi. Shu o‘rinda ijodkorning jinoyatchining oxirgi istagi inobatga olinishi tasviri nihoyatda e’tiborga sazovor. O‘g‘ri oxirgi istak sifatida onasini oxirgi marta ko‘rishni istaydi. Onasini olib keladilar:

O‘g‘ri dedi: “Emchaging och, ey ona,

Bir emayin, shulgina armon manga”.

Ona ham, yig‘ilganlar ham hayron. Biroq, har qanday jinoyatchining ham oxirgi iltijosi inobatga olinishi shart. Ona ko‘kragini tutadi. O‘g‘ri esa ona ko‘kragini tishlab, uzib oladi. Ona hushidan ketib yiqilib qoladi. To‘planganlar bu ishning

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

ma’nisini bilmay, ikkalasini ham shoh oldiga olib boradilar. Shoh bu ishning sababini so‘raganida o‘g‘ri shunday javob beradi:

“Kichkinalikdan o‘lub odat ishim,
O‘g‘rilik o‘lmishdi mani qilmishim.
Kelsam o‘g‘irlab nima narsa, onam
“Yaxshi qilibsani, - der edi, - jon bolam”.

Demadi bir bor anom “To‘g‘ri bo‘l”,
Shunday anoning o‘yla jazosi shul”.

Barcha bu ish ma’nisini bildilar,
Avval ano, so‘ng o‘zini osdirdilar.

Hissa: kimning o‘g‘li yamon, yo‘q ajab,

Bo‘lgay anga ota, anosi sabab [Xamza Hakimzoda. 9: 357].

Shoirning bu ibratli xulosasi katta ma’rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Zero, bola tarbiyasi uchun birinchi javobgar ota-onadir. Bola yaxshi ish qilsa, «ota-onangga rahmat», yomonlik qilsa, «padaringga la’nat» deyishlari ham bejiz emas. Ushbu ibratli she’riy hikoyasida Hamza Hakimzoda barcha davrlar uchun juda katta ijtimoiy ahamiyatga molik muammoni ilgari surgan. Zero, yosh bola bilib-bilmay qilgan nojo‘ya ishning oldi o‘z vaqtida olinmasa, oqibati nafaqat birgina kishi uchun xunuk bo‘lishi, balki butun boshli oila isnodga qolishi, hatto uning zavoli xalqqa tushishi ham mumkin. Shunday ekan, bolasining yomonligi uchun ota-ona ham bab-baravar javob berishi kerak. Hamza Hakimzodaning ushbu ibratli she’riy hikoyasidan kelib chiqadigan dastlabki xulosa shundan iborat.

Shunisi qiziqki, Lev Tolstoy qalamiga mansub va mazmunan Hamzaning shu adabiy ertagiga o‘xshab ketadigan yana bir nasriy adabiy ertak ham bor ekan [Толстой Л.Н. 10: 341]. Lev Tolstoy hikoyasida bola qo‘shnisinikidan tuxum o‘g‘irlyadi, onasi esa, uni maqtaydi. Ona rahnamoligidan ruhlangan bola katta o‘g‘ri bo‘lib yetishadi. Xalqda «o‘g‘rilik ninadan boshlanadi» degan gap ham bor-ku! O‘g‘rini cherkovga o‘g‘irlikka tushganida ushlab oladilar va jazolash uchun maydonga olib chiqadilar. Xalq to‘planadi, ular orasida o‘g‘rining onasi ham bor edi. Onasiga ko‘zi tushgan o‘g‘ri: «onamning qulog‘iga bir so‘z aytishga ruxsat beringlar», - deb so‘raydi. Onasi unga qulog‘ini tutadi. O‘g‘ri esa onasining qulog‘ini tishlab, uzib oladi. Xalq g‘azablanib, uni toshbo‘ron qilmoqchi bo‘ladi. Shunda o‘g‘ri: «Men yoshligimda ilk bor o‘g‘irlik qilganimda onam to‘g‘ri yo‘lga qaytarmagan edi, demak, u ham mening sherigim. Shu sababli ham uni o‘zim jazoladim», - deydi.

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Biroq, mazmunan qanchalik mos kelsa-da, Hamza adabiy ertagi Tolstoy asarining tarjimasini emas. Chunki Tolstoy adabiy ertagi chop etilmagan. U mazkur adabiy ertakni «Yangi alifbo» nomli darsligiga mo'ljallab, rus xalq ertagi asosida yaratgan bo'lsa-da, kitobiga kiritmagan. Bundan tashqari, o'zbek xalq ertaklari orasida ham ayni shunday mazmunli ertak mavjud ekan. Uni folklorshunos olim, marhum K.Imomov yozib olgan. Demak, Hamza Hakimzoda adabiy ertagiga o'zbek xalq ertagi asos bo'lib xizmat qilgan deyish haqiqatga yaqinroq bo'ladi. Biroq ijodkorning tub maqsadi xalq ertagini shunchaki she'riy yo'sinda qayta yaratishdan iborat bo'lmay, balki xalq tomonidan bolaga murojaat qilishning asrlar mobaynida sayqallangan ideal metodlarini egallashdadir. Ushbu asardagi xalq ertagini she'riy yo'lda qayta ishlashdagi ijodkor mahorati sarlavhadan boshlanib, adabiy ertakning «Bolaning yomon bo'lmog'iga sabab bo'lgan onaning jazosi» deb nomlanishidagi o'ziga xos hikmat ertak mazmunining sarlavhadayoq yorqin namoyon bo'lishiga olib kelgan. Bundan tashqari esa, bu o'rinda turli xalqlar og'zaki ijodidagi sayyor syujetlar haqida fikr yuritish to'g'ri bo'ladi. Ikki xalq ertagidagi bir xil mazmun ikki ijodkorning bir xil hayotiy xulosasiga material bo'lib xizmat qilgan. Bu aslida ikki to'g'ri dunyoqarashning bir-biridan xabarsiz holda bo'lsa-da, bir nuqtada mos kelishi hamdir.

Ushbu maqolada o'zbek bolalar she'riyati endigina atak-chechak qilayotgan XX asr boshlarida ushbu adabiyot maydonga kelishi, tarkib topishi va o'ziga xos xususiyatlarni egallashida alohida o'ringa ega bo'lgan ikki ijodkorning ikki adabiy ertagi yaralishida bolalar adabiyotimizning sarchashmasi hisoblanmish xalq og'zaki ijodining benazir ta'siri haqida ba'zi mulohazalarimizni o'rtoqlashdik. Zero, o'zbek bolalar adabiyotining XX asr avvalidan bugungi kungacha bo'lgan taraqqiyoti mobaynida erishgan yutuqlari, dastavval, ildiz baquvvatligi, ya'ni ijodkorlarimiz benazir xalq og'zaki ijodimizning o'lmas an'analarini muvaffaqiyat bilan o'zlashtirishlari va davom ettirishlarida namoyon bo'lishi shubhasizdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Лихачев Д.С. Возникновение русской литературы. – М-Л, 1952.
2. Левин М.П. Новыми путями / Жизнь и творчество С.Маршака. – М., 1975.
3. Ушинский К.Д. Собрание сочинений. В 8-ми томах. Том 6. – М-Л., 1949.
4. Калила ва Димна. – Тошкент, 1977.
5. Ўзбек халқ эртаклари. 2 томлик. Том 1. – Тошкент, 1960.
6. Авлоний А. Иккинчи муаллим. 1-таъб. – Тошкент, 1912.
7. Бегак Б. Неиссякаемый родник. – М.: Знание, 1973.
8. Маршак С. Воспитание словом. – М.: Сов.писатель, 1964.
9. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзий. Тўла асарлар тўплами. 5 жилдлик. 2-жилд. – Тошкент: Фан, 1988.
10. Толстой Л.Н. Полное собрание сочинений. В 90 томах. Т. 21. – М., 1957.